

MAKTABDA “RUSTAMXON” DOSTONINI O‘RGANISHDA
INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH

Sattorov Shokir Jabborovich

*TerDU O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida
o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi*

Annotatsiya: Pedagogik innovatsiya ta’im va tarbiyaning natijadorligini ta’minlash, sifatini oshirish uchun xizmat qiladi. Ta’limda innovatsiya izchil jarayon hisoblanib, dars davomida o‘quvchi faol ishtirokchi, o‘qituvchi esa boshqaruvchilik vazifasini bajaruvchiga aylanadi. O‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasida hamkorlikni paydo qiladi. Bu hamkorlik o‘quvchi shaxsida ijodkorlik ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Kalit so‘zlar: Fan, ilm, adabiyot, zamonaviy texnologiya, innovatsion metodlar, go‘zallik, badiiy til nafosati, uslub va mahorat

Аннотация: Педагогические инновации служат обеспечению эффективности и качества образования. Инновации в образовании считаются последовательным процессом, во время урока ученик становится активным участником, а учитель становится менеджером. Это создает сотрудничество между учителем и учеником. Это сотрудничество также формирует в личности студента творческие способности.

Ключевые слова: Наука, литература, современные технологии, инновационные методы, красота, изящество художественного языка, стиль и мастерство.

Abstract: Pedagogical innovation serves to ensure the effectiveness and quality of education. Innovation in education is considered a consistent process, during the lesson the student becomes an active participant, and the teacher becomes a manager. It creates cooperation between the teacher and the student. This cooperation also forms creativity skills in the personality of the student.

Keywords: science, literature, modern technology, innovative methods, beauty, elegance of artistic language, style and skill

Adabiy ta’lim jarayonida ham zamonaviy texnologiya, innovatsion metod hamda interaktiv usullarni qo‘llash ommalashib bormoqda va buni bugun zamonning o‘zi talab etmoqda. Tajribali, yangilik izlovchi, innovator pedagoglar tomonidan darslarda yangi zamonaviy usullar mahorat bilan qo‘llanmoqda va bu o‘z samarasini ko‘rsatmoqda. “Pedagogik jarayonga nisbatan innovatsiya tushunchasi ta’lim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni, usul va shakllari, o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish kabi faoliyatlarga kiritilgan yangiliklarni

anglatadi”¹. Demak, pedagogik innovatsiya ta’im va tarbiyaning natijadorligini ta’minlash, sifatini oshirish uchun xizmat qiladi. Ta’limda innovatsiya izchil jarayon hisoblanib, dars davomida o’quvchi faol ishtirokchi, o’qituvchi esa boshqaruvchilik vazifasini bajaruvchiga aylanishi bilan farqlanadi. Bu jarayon o’qituvchi bilan o’quvchi o’rtasida ijodiy hamkorlikni paydo qiladi. Bu hamkorlik o’quvchi shaxsida ijodkorlik ko’nikmalarini ham shakllantiradi, albatta.

“Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo’lur”² degan edi buyuk jadedchi Mahmudxo’ja Behbudiy. Darhaqiqat, dunyoviy fan hisoblangan adabiyot fanini bugungi kunda “zamona ilmi”ga moslab o’qitish lozim bo’ladi. Adabiyot darslarida o’rganiladigan asarlar janr va g’oyaviy jihatdan rang-barang. Yaratilish davri nuqtayi nazaridan ham badiiy asarlar ayrim o’rinlarda o’ziga xos murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Bu esa o’quvchilar tomonidan mavzuning bir xil darajada o’zlashtirishga imkon bermaydi. Bu borada adabiy ta’lim samaradorligiga erishishning eng ma’qul usuli sifatida e’tirof etilayotgan zamonaviy texnologiyalar, innovatsion metodlar ijobiy samara beradi.

Xalq dostonlari orqali o’quvchilarda qanday ezgu ma’naviy sifatlar shakllantirish maqsad qilib qo’yilganini, avvalo, o’qituvchining o’zi yaxshi tushunib olishi va shunga asosan dars metodlarini to’g’ri tanlay bilishi lozim bo’ladi. Albatta, adabiy ta’lim jarayonini bir qolipga solib bo’lmaydi. O’qituvchi o’quvchilarning yosh xususiyatlari, o’zlashtirish darajasi, dars o’tiladigan xonaning sharoitlaridan kelib chiqib turli shakl va mazmundagi ta’lim metodlarini tanlaydi va undan foydalanadi. Bir guruhda juda yaxshi samara bergan usul boshqa guruhda kutilgan natijani bermasligi ham mumkin va shunday. To’g’ri tanlangan amaliy topshiriqlar, kichik guruhlarda jadvallar asosida ishlash, qahramonlarning qiyosiy tahlil, organayzerli (fikriy jarayonlarni ko’rgazmali taqdim etish) jadvallar, turli taqdimotlar, multimedia materiallaridan foydalanish kabi innovatsion metodlar o’quvchini tinglovchidan mashg’ulotning faol ishtirokchisiga aylantiradi.

O’quvchi uchun dostonning umumiy mazmunidan xabardor bo’lish, voqealar rivojini, ketma-ketligini bilishning o’zi yetarli emas. Matnni o’qib, o’zlashtirib, teran mustaqil mushohada qilishga harakat qilishlari lozim. O’quvchilar shunday nodir, epik asarni darslikda berilgan 15-16 ta savol yoki topshiriqlarga javob topishlari bilan to’liq o’zlashtirdilar-deb bo’lmaydi. Doston qahramonlarining ruhiy olamini anglash, ularning qalbida kechayotgan hissiyotlarni sezish, idrok qilish, umuman asar mohiyati va badiiyatni ochishga xizmat qilmaydigan, deylik faktologik (raqam va sana bilan bog’lik) savol va topshiriqlar mashg’ulotlar saviyasini tushishiga ta’sir ko’rsatib, adabiy ta’limdan ko’zlangan maqsaddan o’qituvchini ham, o’quvchini ham yiroqlashtiradi. Adabiyot darslarini shunday tashkil etish kerakki, har bir darsdan

¹ Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o’qitish metodikasi. T.: “Innovatsiya-zyo”. -2020.

² Behbudiy M. Tanlangan asarlar. T.: “Ma’naviyat”. 2006. -200 -bet.

so‘ng, o‘quvchi o‘sha darsda o‘tilgan asar ruhi bilan yashasin, o‘sha asar qahramoniga taqlid qilsin, asar parchasidan kifoyalansin, asarning to‘liq matnini o‘qishga intilsin. Matndagi har bir voqeani o‘z “qarichi” bilan o‘lchasin, har bitta qahramonga o‘z nuqtai nazari bilan qarasin va baho bersin. Buning uchun o‘qituvchi o‘rganiladigan har bir badiiy asarga mos keladigan, natijador metodni topa olishi va qo‘llashi lozim.

Umumta‘lim maktablarining 10-sinfida “Rustamxon” dostonini o‘qitishga dasturda jami 5 soat ajratilgan. Ana shu belgilangan 5 soatda “Rustamxon” doston matnini to‘liq o‘zlashtirilishiga erishish lozim. Buning uchun o‘qituvchi dostonidagi muammo va yechimlarni mustaqil izlab topishi va tahlil qilishi uchun avval ta‘kidlaganimizdek, darsda qo‘llaniladigan metod va texnologiyalarni to‘g‘ri tanlay olishi kerak. O‘qituvchi dostonning tuzilishi, badiiyati, dostonni yozib olgan va o‘rgangan olimlar hamda uni kuylagan baxshilar haqida qisqa, ammo darslikda berilmagan eng zarur ma‘lumotlar bilan o‘quvchini tanishtirishi lozim. Maktab o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirish, asar bilan yaqindan tanishishlari va tahlilga chuqur kirishishlari uchun xizmat qilishi kerak bo‘lgan konseptual (mantiqiy) savollar tuzib chiqilishi maqsadga muvofiq. O‘qituvchi, albatta o‘quvchilar bilan har bir holatga baho berishi, matnda qo‘llangan har bir so‘z va iborani, maqolni, hikmatlarni va ular bilan bog‘liq hayotiy voqealar, badiiy asar yoxud kinofilmlarni yodga olishi va eng asosiysi, dostonda aytilgan fikr va mulohazalar xulosalanishi lozim. Zero, “bunday yakun o‘quvchini mazmun ustida o‘ylash, uni idrok etish va hayotiy umumlashmalar qilishga undaydi”³. Bilamizki, doston tahlili faqat o‘qituvchi tomonidan olib borilmay, yo‘naltiruvchi savol va topshiriqlar orqali o‘quvchilarning o‘zini qatnashtirish darsning yuksak samarasini ta‘minlaydi.

Tajribadan ko‘rinadiki, ko‘pchilik hollarda o‘qituvchilar badiiy asar mazmunini to‘lig‘icha qayta hikoya qilib beradilar, yoki matnni o‘qib beradilar. Ana shu joyda matnning nafosatiga katta zarar yetadi. Sababi, hech bir o‘qituvchi dostonni kuylagan baxshi darajasida idrok etib bera olmaydi. Misol uchun, “Navoiy tasvirlagan manzarani yoki Qodiriyning nozik ifodalarini ulardan boshqa biror kishi adiblar erishgan badiiy effektga erishtiradigan tarzda aytib bera olmasligi kabi. Adabiyot darslarida o‘qituvchilarning asosiy vaqti asardagi voqealarni o‘quvchilarga o‘qib yoki aytib berish bilan, o‘quvchilarning ko‘p vaqti esa, muallimlaridan eshitganlarini qayta hikoyalash bilan o‘tayotganligi uchun ham bizda kitobxonlik va kitob o‘qish madaniyatini pasayib ketishiga olib kelmoqda, nazarimizda. Shvetsariyalik psixolog, faylasuf va pedagog Jan Piaje o‘zining “Bola ruhiyatining xususiyatlari” asarida kichik guruhlarda ishlaganda o‘quvchi miya faoliyatining yuqori bo‘lishini asoslaydi. Zero,

³Қодиров В. Умумтаълим мактабларида мумтоз адабиёт намуналарини ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. доктори (DSc) диссер. Наманган, 2019.

birgalikda bajarilgan amaliy mashg'ulotlar nafaqat o'rganish uchun foydali, balki uzoq muddatli xotira uchun ham muhimdir⁴.

Zamonaviy dars o'tish uchun bir necha texnologiyalaridan foydalanish lozim. Chunki, o'qitish jarayonida bir necha texnologiyalarning elementlari birdaniga qo'llaniladi, chunki pedagogik texnologiya - bu o'quv jarayonini butunlay qamrab oluvchi yaxlit jarayon hisoblanadi. Pedagogik maqsadning amalga oshishi va aniq natijaga erishish o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatiga aloqador. Yuqori natijalarga erishishda konseptuallik, tizimlilik, samaradorlik, boshqaruvchanlik kabi mezonlarga qat'iy amal qilish zarur. O'qituvchining dars jarayonini qanday metodlar asosida o'tishi uning o'z izlanuvchanligi, qobilyati qolaversa, ixtiyoriga qarab tanlanadi. O'qituvchi qaysi mavzuni o'tmoqchi bo'lsa, o'sha mavzuning mohiyatini o'quvchiga yetkazishda samara beradigan, mavzuga mos metod va texnologiyalarni tanlaydi. Misol uchun, natijaga erishish uchun balki kompyuter yoki elektron doska bilan ishlash lozimdir, yoki videofilm, tarqatma materiallar va boshqa zaruriy ashyolar. Bularning hammasi o'qituvchi va o'quvchilarga bogliq. Qanday metod tanlanmasin, mavzuga mos bo'lishi, vaqtdan samarali foydalanish va natijador bo'lishi shart.

Adabiyot darslarida matn ustida ishlash badiiy asarlarni tahlil qilishning asosiy bosqichi sanaladi. Tajribali o'qituvchi bu jarayonda asosiy diqqatini asarda nima haqida gap borayotganligiga emas, balki asardagi ifodaning go'zalligi, badiiy til nafosati, uslub va mahorat masalalariga e'tibor beradi. Masalan, doston voqealarining tasviri, qahramonlariniing xatti-harakatlari, voqealar jarayonidagi ishtirokini o'quvchi tafakkurida to'liq tasavvur hosil qilinishiga erishishiga diqqat qaratadi. Xuddi mana shu jarayonda o'qituvchi mahoratiga ehtiyoj nihoyatda katta. Metod asosida dars o'tishda tajribasi kam, no'noq o'qituvchi badiiy asar matni zimnidagi mazmun va nafosatni o'quvchi ongiga singdira olmaydi, natijada o'quvchi badiiy asar, umuman, kitob o'qishga qiziqishi yo'qoladi. Buning ushun innovatsion texnologiyalarni o'rnida qo'llash yaxshi samara beradi.

“Adabiyot ruhiyatning ifodasi bo'lib, ruhiyat tasviridagi umumiyliklar xalqlarning taqdiridoshgina emas, balki tuyg'udosh ham ekanliklarini bildiradi⁵, – deb yozadi E.Abduvalitov. Anglashiladiki, umumta'lim maktablarida xalq diliga jo bo'lgan, asrlar davomida ezgulikka ishonch, yorug' kunlarga umid, haqiqat, adolat, sadoqat tuyg'ulariga hurmat ruhini uyg'otgan xalq og'zaki badiiy ijodi durdonalarini chuqur o'rgatish o'quvchilarda go'zallik hissini kashf etadi, o'qiganlari uning

⁴ Сафин Д., Мусина Р. Интерактивные методы преподавания и учения. Учебное пособие. Модул 1. – Т.: Наука, 2007. 69-стр.

⁵ Абдувалитов Э. Умумий ўрта таълим мактабларида қардош халқлар адабиётини қиссий ўрганиш. Пед. фан. доктори (DSc) диссер. – Т.: 2020.

tushunchalariga, qalbiga ta'sir etib, uni komillashtiradi, hayot tajribasini oshiradi. Shuningdek, dostonlarni innovatsion yondashuvlar asosida o'rganish o'quvchilarning aqliy va fikrlash faolligini o'stirib, ijodiy tafakkurini rivojlantiradi, keng ko'lamli xalq dostonlari matnini, ulardagi mohiyatni chuqur o'zlashtirishlariga ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. T.: "Innovatsiya-zyo". 2020.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. T.: "Ma'naviyat". 2006. -200 -bet.
3. Қодиров В. Умумтаълим мактабларида мумтоз адабиёт намуналарини ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. доктори (DSc) диссер. Наманган, 2019.
4. Сафин Д., Мусина Р. Интерактивные методы преподавания и учения. Учебное пособие. Модул 1. – Т.: Наука, 2007. 69-стр.
5. Абдувалитов Э. Умумий ўрта таълим мактабларида кардош халқлар адабиётини қиёсий ўрганиш. Пед. фан. доктори (DSc) диссер. – Т.: 2020.